

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHDA ADVOKAT FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Raimkulova Muxlisa Alisher qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti,

mukhlisaraimkulova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20825152>

Annotatsiya. Mazkur tezisdan raqamli iqtisodiyot va elektron huquqiy munosabatlarning jadal rivojlanishi sharoitida elektron dalillarning fuqarolik-huquqiy nizolarni hal etishdagi o'rni hamda ularni to'plash, mustahkamlash va sudga taqdim etish jarayonida advokat faoliyatining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan elektron hujjatlar, elektron yozishmalar, internet-resurslardagi ma'lumotlar va boshqa raqamli axborotlarning daliliy ahamiyati tahlil qilinib, ularning ishonchliligi, maqbulligi va haqiqiyiligi ta'minlash bilan bog'liq protsessual masalalar yoritilgan. Shuningdek, elektron dalillar bilan ishlashda advokatning vakolatlari, elektron tijorat va virtual muhitda yuzaga keladigan shartnomaviy nizolarda advokat ishtirokining ahamiyati, milliy qonunchilik va xorijiy tajriba asosida mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida elektron dalillarni yig'ish va ulardan foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, advokatlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: advokatlik faoliyati, raqamli dalillar, virtual muhit, elektron tijorat, elektron shartnoma, onlayn nizolarni hal etish (ODR), sud isboti, elektron hujjat, elektron hujjat aylanishi, elektron imzo, raqamli iqtisodiyot, virtual nizolar, elektron yozishmalar.

Raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishi va huquqiy munosabatlarning elektron shakllarga transformatsiyalashuvi natijasida fuqarolik muomalasining salmoqli qismi virtual muhitda amalga oshirilmoqda. Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar, raqamli platformalar hamda elektron shartnomalar institutining keng qo'llanilishi virtual muhitda yuzaga keladigan shartnomaviy munosabatlar ko'lamini sezilarli darajada kengaytirdi. Natijada shartnoma majburiyatlarini buzish bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqishda elektron dalillarning isbotlash vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur sharoitda elektron dalillarni to'plash, ularning haqiqiyiligi va maqbulligini ta'minlash hamda sudga taqdim etish jarayonida advokatning malakali yuridik yordami taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Elektron dalillar zamonaviy fuqarolik protsessida isbotlash vositalarining yangi va o'ziga xos turi sifatida shakllanib bormoqda. Ularning o'ziga xos jihati shundaki, mazkur dalillar moddiy shaklda emas, balki elektron ko'rinishda mavjud bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida yaratiladi, saqlanadi va uzatiladi. Jumladan, elektron hujjatlar, elektron pochta yozishmalari, messengerlar orqali almashilgan xabarlar, elektron to'lov tizimlari ma'lumotlari, veb-saytlardagi axborotlar, audio va video yozuvlar hamda server loglari elektron dalillarning eng keng tarqalgan ko'rinishlari hisoblanadi. Mazkur ma'lumotlar virtual muhitda yuzaga keladigan huquqiy nizolarni hal etishda muhim isbotlash ahamiyatiga ega.

Shu bilan birga, elektron dalillarning o'ziga xos tabiati ularni aniqlash, saqlash va baholash jarayonida qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, *P.S. Ivanovning* fikriga ko'ra,

elektron dalillarning asosiy o'ziga xosligi ularning "moddiy jihatdan barqaror bo'lmagan axborot muhiti"ga tayanishi bilan izohlanadi. Olim elektron ma'lumotlarning doimiy o'zgaruvchan xususiyatga egaligi hamda ularning masofaviy serverlarda saqlanishini an'anaviy yozma dalillardan farqlovchi muhim mezon sifatida qayd etadi. Shu nuqtayi nazardan, advokatlar elektron dalillarni baholash jarayonida faqat huquqiy bilimlarga emas, balki ularning haqiqiyli va ishonchliligini aniqlashga xizmat qiluvchi texnik autentifikatsiya standartlarini qo'llash bo'yicha ham zarur kompetensiyalarga ega bo'lishlari lozimligi ta'kidlanadi. Ya'ni, elektron ma'lumotlarning o'zgartirilishi, nusxalanishi yoki butunlay yo'q qilinishi ehtimolining mavjudligi ularning ishonchliligi va haqiqiyli va aniqlash masalasini dolzarb huquqiy muammoga aylantirmoqda. Bunday sharoitda advokatning nafaqat huquqiy bilim va ko'nikmalari, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Virtual muhitda yuzaga keladigan shartnomaviy nizolarda advokatning asosiy vazifalaridan biri elektron dalillarni o'z vaqtida aniqlash va ularning yo'qolib ketishining oldini olishdan iboratdir. Chunki ko'plab elektron ma'lumotlar vaqt o'tishi bilan o'chirib yuborilishi, texnik nosozliklar natijasida yo'qolishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Shu sababli advokat nizoning dastlabki bosqichidayoq dalillarni mustahkamlash, ularni qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirish hamda keyinchalik sud muhokamasida foydalanish imkoniyatini ta'minlash choralari ko'rish lozim.

Elektron tijorat sohasida yuzaga keladigan nizolarda advokatning ishtiroki ayniqsa muhim hisoblanadi. Sababi, elektron shartnomalar tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish jarayonlarining aksariyati masofadan turib amalga oshiriladi. Natijada taraflarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holatlar elektron axborotlar orqali tasdiqlanadi. Advokat esa mazkur elektron ma'lumotlarni tizimlashtirish, ularning daliliy kuchini asoslash hamda ishonch bildiruvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan protsessual harakatlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli dalillarning aksariyat qismi virtual muhitda yuzaga keladigan nizolar bilan bog'liq bo'lib, mazkur nizolar o'zining transchegaraviy xususiyati bilan ham ahamiyatlidir. Xususan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan 1996-yilda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi Model qonun elektron hujjatlar hamda elektron xabarlarining huquqiy maqomini tan olish, ularni yozma shakl bilan tenglashtirish va elektron axborot almashinuvini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asosiy konseptual asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, 2001-yilda qabul qilingan "Elektron imzolar to'g'risida"gi Model qonun elektron imzoning huquqiy kuchini belgilash hamda uni autentifikatsiya vositasi sifatida qo'llashning xalqaro standartlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, 2016-yilda ishlab chiqilgan UNCITRALning "Onlayn nizolarni hal etish bo'yicha texnik izohlar"i elektron tijorat doirasida yuzaga keladigan nizolarni masofaviy va raqamli platformalar orqali ko'rib chiqishning protsessual asoslarini belgilashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining 910/2014-sonli eIDAS Reglamenti esa elektron identifikatsiya, ishonch xizmatlari, elektron imzo hamda vaqt tamg'asi kabi institutlarni yagona huquqiy standartlar asosida tartibga solib, raqamli huquqiy muhitda ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan normativ akt sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, 2001-yildagi Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish hamda elektron dalillar

bilan bog'liq masalalarda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat va elektron hujjat aylanishi sohasida yagona va uyg'unlashgan xalqaro yondashuv shakllanib bormoqda. Ushbu yondashuvning asosiy mazmuni raqamli muhitda tuziladigan bitimlarning huquqiy jihatdan aniqligi va barqarorligini ta'minlash, elektron dalillarning yuridik maqbulligini kafolatlash hamda transchegaraviy elektron savdo munosabatlarida ishonchli va barqaror huquqiy muhitni yaratishdan iboratdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni: 1998-yil 25-dekabrda 721-I-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1999. – URL: <https://lex.uz/docs/-29626>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6039334>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. United Nations, UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce with a Guide to Legislation 1996 - with additional Article 5 bis as adopted in 1996-, New York, 2000.
5. UNCITRAL. *Technical Notes on Online Dispute Resolution*. – New York: United Nations Commission on International Trade Law, 2016. <https://uncitral.un.org/>.